bu yerda n_2 – kamera balandligi bo'yicha joylashgan qoliplar soni; h – qolip qalinligi; m , h_1 – qoliplpr orasidagi tirqish; $h_1= 0,05-0,7$ m; h_2 – kamera poli sathidan qolip tagigacha bo'lgan masofa (balandlik) $h_2=0,1-0,15m$; h_3 – kameradagi eng ustki qolip ustidan kamera qopqog'i tagigacha bo'lgan masofa (balandlik) $h_3= 0,1-0,13m$ kamerani qoliplar bilan to'ldirish koeffisiyenti. Buyumlar uchun esa K_o qiymati quyidagicha hisoblanadi:

$$K_0=V_f*V_k$$

Kameraning yuklash koeffisiyenti

$$K_0=V_b*V_k$$

Bu yerda: V_f – kaiyeraga urnatiladigan qoliplar hajmi, m^3 . V_b – kameradagi buyumlar hajmi, m^3 , V_k – kamera hajmi, m^3

Ba'zi buyumlar uchun K_0 koeffisiyentining o'rtacha miqdori.

Buyumlarning hili	Kamera uchun K_0 qiymati	
	maxsuslashtirilgan	universallashtirilgan
G'ovakli, g'ovaksiz va qovurg'ali plitalar	0,36	0,24
regillar	0,27	0,05
Zinapoya va uning ustunlari	0,25 0,34	0,06 0,12

Kameraning 1 m^3 foydali hajmidan ish davomida chiqariladigan mahsulotlar miqdori, m^3/m^3

$$S_k= K_{ayl}*K_{yu}*S$$

Bu yerda K_{ayl} – kameraning sutka davomidagi aylanishlar soni. S – yillik fond ish vaqti;

$$K_{ayl}=23 \text{ Pa}$$

Bitta agregat potok liniyasi uchun talab qilinadigan qoliplar soni quyidagicha aniqlanadi

$$P_k=(1,05*2,5*T_{ayl}*V)/YeT_4$$

Bu yerda V – sutka davomidagi ish soatlari; T_{ayl} – qolipning o'rtacha aylanish vaqti, soat; YeT_4 – qoliplarni tayyorlash, armaturalash va betonlash sikllarining davom etish vaqti, min

$$T_{ayl} = T_k + (t_4 + Et_f) / 60$$

Bu yerda $(t_4 + Et_f) / 60$ hamma jarayonlarni bajarish uchun ketgan vaqt (buyumni qolipdan bo'shatib, yangidan buyumni quyish uchun); t_4 – quyish sikli, min

Yukoridagilardan foydalanib, kameraning asosiy o'lchamlarini aniqlaymiz. Plitaning o'lchamlari $6 \times 3 \times 0,3$ m. Qolip o'lchamlari esa $6,4 \times 3,4 \times 0,45$ m. Quyish siklini bitta post uchun $t_4 = 12$ min qabul qilamiz. Balandlik bo'yicha besh qator buyum qo'yiladigan bir seksiyalik kamera tanlaymiz. Kameraning uzunligi (3.4)ga asosan $1p = 6,4 + (1+1) \times 0,4 = 7,2$ m, eni esa $6k = 3,4 \times 1 + (1+1) \times 0,35 = 4,1$ m va uning balandligi (chuqurligi) asosan $hn = 5 \times (0,45 + 0,07) + 0,15 + 0,1 = 2,85$. Kameraning aylanish vaqtini hisoblaymiz. Issiqlik bilan qotirish siklining davomiyligi (vaqt) jadvalga asosan $t_4 = 11$ soat (buyumning qalinligi va beton asosida). Quyish sikli $t_4 = 12$ min yoki $12:60 = 0,2$ soat. Kameradagi qoliplar soni balandligi bo'yicha $m = 5$ ta. U holda kamerani bitta quyish postdan yuklanganda (3.1) asosan (uch smenalik va olti kunlik ish haftasi uchun)

$$T_k = 11 + 1,715 \times 12 \times 5 / 60 = 12,72 \text{ soat}$$

Ikkita quyish postidan yuklanganda (3.2) asosan

$$T_k = 11 + 1,143 \times 12 \times 5 / 60 = 12,14 \text{ soat}$$

Besh kunlik ish haftasi uchun ikki smenada ish bajarilganda kamerani yuklash vaqti $t_k = 12 \times 5 = 60$ min (bitta postdan yuklanganda).

Siklogramma asosida $T_k = 17,8$ soatga teng bo'ladi. Yuklash vaqti $t_k = 12 \times 5 / 2 = 30$ min bo'lganda (ikkita postdan yuklanganda) $T_k = 16,8$ soatga teng bo'ladi. Uch smenada ish bajarilganda $t_k = 60$ min bo'lganda siklogramma asosida $T_k = 13,6$ s, $t_k = 60$ min bo'lganda $T_k = 13,0$ sga teng bo'ladi. Plitani issiqlik bilan qotirish rejimi grafigi ko'rsatilgan. Talab qilinadigan kameralar soni asosida hisoblaymiz. $V = 16$ soat bo'lganda (ikki smenali, 5 kunlik ish haftasi uchun) va bitta quyish postidan yuklanganda

$$N_k = 16 \cdot 17,8 / 24 \cdot 0,2 \cdot 5 = 2 \text{ dona}$$

Ikkita quyish postidan yuklanganda

$$N_k = 16 \cdot 16,8 / 24 \cdot 0,2 \cdot 5 = 11 \text{ dona}$$

Bitta liniya uchun talab qilinadigan qoliplar sonini aniqlaymiz. Qolipning o'rtacha aylanish vaqtiga asosan

$$T_{ayl} = (17,8 + 12 + 52,5) / 60 = 17,8 + 1,08 = 18,88 \text{ soat}$$

Bu yerda $V = 16$ soat-sutka davomidagi $t_4 = 12$ min beton quyish sikli; $E_{t_f} = 52,5$ min qolipning boshqa postiga kelishi va boshqa jarayonlar uchun ketgan vaqti. U holda qoliplar soni (3.10) asosan $P_k = 1,05 \cdot 25 \cdot 16 \cdot 18,88 / 33 = 20 \text{ dona}$

Bu yerda $V = 16$ soat-sutka davomidagi ish soatlar; $T_{ayl} = 18,88$ s qoliplarning o'rtacha aylanish vaqti; $E_{T_4} = 9 + 5 + 10 + 2 + 12 = 38$ min qolipni tozalash, moylash bortlarini mahkamlash, armaturalash, titratma maydongacha o'rnatish va betonlash uchun ketgan vaqtlar yig'indisi.

Kamerani qoliplar bilan va uni yuklash koeffitsiyentlarini aniqlaymiz:

$$\text{Kameradagi buyumlar hajmi } V_b = 1 \cdot 6 \cdot h_n \cdot m = (6 \cdot 3 \cdot 0,30) \cdot 5 = 27,0 \text{ m}^3$$

Kameradagi qoliplar hajmi

$$V_f = (6,4 \cdot 3,40 \cdot 0,45) \cdot 5 = 27,0 \text{ m}^3$$

$$\text{Kameraning hajmi } V_k = 1_k \cdot 6_k \cdot h_k$$

$$\text{U holda (3.7) va (3.8) asosan } K_0 = 48,9 / 84 = 0,58 \text{ va } K_k = 27,0 / 84 = 0,32$$

Kameraning 1 m^3 foydali hajmidan yil davomida chiqariladigan mahsulot miqdorini m^3/m^3 asosan hisoblaymiz.

$$S_t = 1,57 \cdot 0,23 \cdot 247 = 124 \text{ m}^3$$

$$\text{Bu yerda } Q_{ayl} = 23h = 23 / 17,8 = 1,57 \text{ marta } S = 247 \text{ yil davomidagi ish kunlari.}$$

Har xil buyumlar uchun kameraning 1 m^3 hajmidan bir yilda chiqariladigan mahsulotlar miqdori

Buyumlarning hili	Kameraning 1 m ³ hajmidan chiqadigan mahsulotlar, m ³ /yil
Ora yopma va tom yopma plitalar	130...180
Yengil betonlik bir qatlamli tashqi devor ponellari	90...140
Xuddi shunday uch qatlamli rigellar va ustunlar	120...160
Zinapoya va uning plitalari	80...120
Balkalar, ora devorlar va bloklar	70...90
	60...80

Agregat-potok usuli uchun uzlukli ishlaydigan tupali shaklidagi bug' kamerasi ham qo'llaniladi. Bunday kameralar ancha kamroq qo'llanilib, asosan kichik o'lchamli buyumlarni issiq bilan qotirish uchun moslashtiriladi. Kameran uzunligi o'rtacha 15...25 m atrofi bo'yicha bir qator, uzunligi bo'yicha esa bir necha buyum ketma-ket joylashtiriladi. Kamera reles yo'l bilan jihozlantiriladi. Uning balandligi quyidagicha aniqlanadi.

$$h_k = n(h + h_1 + h_2 + h_3 + h_4)$$

bu yerda n – kamera balandligi bo'yicha joylashgan qoliplar soni; h_1 – qoliplar orasidagi tirqish, $h_1 = 10...15$ sm, h_2 – relesning balandligi, $h_2 = 15...18$, h_3 – qolip vagonchasining balandligi, h_4 – kamera shpdan buyum qolip bilan birgalikda balandligi. Kameraning balandligi o'rtacha 2 m orasida bo'lsa maqsadga muvofiqdir. Uning uzunligi va eni kameraning soni, o'rtacha aylanish vaqti va boshqa ko'rsatkichlari yuqorida ko'rib chiqilgan chuqurlik bug'lash kamerasi kabi aniqlanadi.

Xom-ashyolar ombori va beton qorish sexi

Sement ombori

Sement omborlari sementni saqlash uchun, shuningdek uni transport vositasidan qabul qilish va beton qorish sexining sarflash bunkeriga uzatish uchun xizmat qiladi. Sement omborlari quyidagicha sinflanadi: transport yo'llarga silos idishlarning hili bo'yicha boshqarilishi va sementni uzatish bo'yicha.

Transport yo'llarga bog'lanish bo'yicha ular avtomobil transporti va temir yo'l transporti omborlariga bo'linadi. Avtomobil transporti yo'llarga bog'langan

omborlar asosan sement tashigich transport vositalari yordamida to'ldiriladi. Temir yo'l transporti yo'llariga bog'langan omborlar asosan sement tashigich transport vositalari yordamida to'ldiriladi.

Sig'imi bo'yicha silos omborlari 100, 150, 200, 240, 360, 480, 720, 1100, 1700, 2500 va 4000 t mo'ljallanadi.

Alohida silos diametri 5...10 m qilib yasaladi. Quvvati uncha katta bo'lmagan korxonalarning alohida sexlar uchun sig'imi 10...25 tlik silos omborlari qo'llaniladi. Silos idishlarning hili bo'yicha ular silindr shaklida po'lat tunukalardan va temir beton qurilmalaridan yasaladi. Boshqarilishiga qarab mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan xillarga bo'linadi.

Beton qorish sexining sarflash bunkeriga sement silos omboridan mahsus osma trubalar orqali uzatadi. Sementning ombordagi zahirasi, ya'ni ehtiyoj miqdori korxonaning unumdorligini ta'minlash uchun ombordagi sement zahirasi hisobiy miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$N_s = P \cdot S \cdot P_4 \cdot 1,04 / 0,9 \cdot S$$

Bu yerda: P – korxonaning unumdorligi, m; S – 1 m³ betonga sarflanadigan sementning o'rtacha sarfi, kg; P₄ – ombordagi sement zahirasi, kun; 1,04 – sementni tashish va tushirish paytida sodir bo'ladigan kamayishlarni hisobga oluvchi koeffitsiyent; 0,9 – silos idishlarining to'ldirilish koeffitsiyenti; S – yil davomidagi hisobiy ish kunlari.

Yuqoridagi formula orqali topilgan sement zahirasi asosida ombor hajmi aniqlanadi. Ombor hajmi hamda korxona unumdorligiga qarab va jadval 6 asosida silos idishlarning soni aniqlanib, ular bir, ikki yoki bir necha qator qilib joylashtiriladi.

Sementning ombordagi talab qilinadigan zahirasini yuqoridagi formula orqali hisoblaymiz.

$$S = 25000 \cdot 0,440 \cdot 10 \cdot 1,04 / 0,9 \cdot 262 = 441 \text{ t}$$

Korxonaning unumdorligiga asosan jadval 6 (ilova 2) asosida 4 ta sig'imi 150 t silos bannasi qabul qilamiz. Silos idishlarning to'ldirilish koeffitsiyenti 0,9. Unda silos idishlarga $4 \cdot 150 \cdot 0,9 = 540 > 44$ t sement joylashadi.

To'ldiruvchilar ombori

Temirbeton korxonalarining to'ldiruvchilar ombori ashyolarni qabul qilish, saqlash va omborlarning hili bo'yicha sinflanadi. Omborlarga ashyolarga transport vositasida keltiriladi va gravitasion kuch ta'sirida ishlovchi mahsus mexanizmlar yordamida tushiriladi. To'ldiruvchilar ombori bir necha kattaliklardan iborat bo'ladi va ularda ashyolar kerakli fraksiyalar bo'yicha saqlanadi.

To'ldiruvchilar omborida barcha jarayonlar kompleks mexanizasiyalashgan va avtomatlashtirilgan usullarda bajariladi.

Omborlarning hilini tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur: iqlim sharoitlari, tashqi transport va uning xarakatlanish tizimi, ombordagi ehtiyoj zahiralari miqdori texnologik talablar

To'ldiruvchilar omborlari qurilish tumani va iqlim sharoitlari asosida ochiq yoki yopiq holda loyihalanadi. Qish vaqti uncha uzoq davom etmaydigan va yog'ingarchilik kam bo'ladigan rayonlarda to'ldiruvchilar ombori ochiq holda quriladi.

Omborlarning sig'imi korxonaning yillik unumdorligi va me'yorida ko'rsatilgan to'ldiruvchilar zahirasi orqali aniqlanadi. Bunda to'ldiruvchilarning miqdori korxonaning to'xtovsiz ishlab chiqarishni ta'minlashi zarur. Omborning foydali yuzasi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_1 = V/q$$

Bu yerda V – to'ldiruvchilarning ishlab chiqarishga kerakli zahirasi, m^3 (yoki t)
 q – omborlarning solishtirma sig'imi, m^3/m^2 (yoki t/m^2)

Unda omborning umumiy yuzasi:

$$S_2 = S_1 K_n$$

Bu yerda: K_n -ombor yuzaning yo'laklar hisobga oluvchi kengayishi koefitsiyenti $K_n = 1,15$

Ombordagi to'ldiruvchilar ishlab chiqarish jarayoniga o'tadigan zahirasi

$$V = P \cdot 3p_t \cdot K/S$$

Bu yerda P – korxonaning yillik unumdorligi, m^3 , 3-beta uchun sarf bo'ladigan to'ldiruvchilarning o'rtacha miqdori, m^3/m^2 ; p_t – ish kunlari biyyicha to'ldiruvchilar zahirasi, K – to'ldiruvchilarni tashish va to'kish paytida sodir bo'ladigan kamayishni e'tiborga oluvchi koeffitsiyent. $K=1,02$, S – ji=ozlarning yillik ishlatilish vaqti, kun.

Ishlab chiqish jarayonida $1 m^3$ beton qorishmasini tayyorlash uchun sarf qilinadigan to'ldiruvchilarning taxminiy miqdori jadval 8 (ilova) da berilgan.

Odatda to'ldiruvchilar omborga maxsus jihozlarga uzatuvchi tasmali konver uskunalar yordamida to'kiladi. To'ldiruvchilar qo'zg'almas konver bilan bir joyga to'kilganda konus shaklidagi uyum hosil bo'ladi.

Konus shaklidagi to'kilgan to'ldiruvchilar qo'zg'almas konver buyumning hajmi quyidagicha topiladi:

$$V = P \cdot N^3 / 3 \cdot \text{tg}^2 a$$

Ba'zi hollarda omborga to'ldiruvchilar o'zi yurar to'kuvchi konver uskunasi orqali to'kilganda bir uchi yarim konus va qolgan tomoni prizma shaklida cho'zilib ketadi. Bunday hollarda uyumining hajmi:

$$V = N^2 L / \text{tga} + P \cdot H^2 / 2 \text{tg}^2 a$$

Bu yerda: N – to'ldiruvchilar uyumining balandligi, m ; L – uyumsimon qismining uzunligi, m ; $a=40^\circ$ ashyolarning tabiiy qiyaligi.

To'ldiruvchilar temiryo'l transporti bilan yetkizilganda to'ldiruvchilarning me'yoriy zahirasi jadval 7 (ilova 2) asosan $P_t=10$ kun qabul qilamiz. Shuningdek $1 m^3$ og'ir beton qorishmasini tayyorlash $0,9 m^2$ shag'al va $0,45 m^3$ qum o'yma hajmida sarf qilinadi. Jadval 8 (ilova). To'ldiruvchilarni ishlab chiqarishga kerakli zahirasini (4.4) asosida hisoblaymiz

$$\text{Shag'al zahirasi } V_{sh} = 2500 \cdot 0,9 \cdot 10 \cdot 1,02 / 262 = 875 m^3$$

$$\text{Qum zahirasi } V_q = 2500 \cdot 0,45 \cdot 10 \cdot 1,02 / 262 = 438 m^3$$

$$\text{To'ldiruvchilarning umumiy miqdori } V = V_{sh} + V_k = 875 + 438 = 1314 m^2$$

Shag'al uyumi asosining diametri

$$D=2N/\text{tga}=2*9/0,839=21,5\text{m}$$

Unda shag'al uyumi asosining yuzasi

$$S_{\text{sh}}=PD^2/4=3,14*21,5^2/4=363\text{m}^2$$

Qum uyumining hajmi: (4.5)ga asosan:

$$V=3,14*7^3/3*0,839^2=510\text{m}^3,$$

$$\text{Qum uyumining asosiy yuzasi } S_k= S_{\text{sh}}+ S_k=363+219=582 \text{ m}^2$$

$$\text{Omborning umumiy yuzasi (4.3)asosida Ye } S=5*8*1,5=873\text{m}^2$$

Me'yoriy iqlim sharoitlarini e'tiborga olgan holda yarim yopiq ombor tanlaymiz. Omborning eni $V=25$ qabul qilamiz. (bunda ombor eni shag'al uyumi diametridan kattaroq bo'lishi kerak)

Uzunligi bo'yicha ikkita shag'al bo'lmasi va bitta qum bo'linmasini joylashtiramiz, jadval 7 (ilova 2) asosida. Unda omborning uzunligi

$$L=2*25+1*20=70\text{m bo'ladi.}$$

$$\text{Demak omborning umumiy yuzasi YeS= } B*L=25*70=1750\text{m}^2 \text{ bo'ladi}$$

Omborning yon tomoniga uzunasi bo'yicha yo'l va avtomobil yo'llari joylashtiriladi. Shuningdek omborning uzunasi bo'yicha bir tomonga to'ldiruvchilar qabul qiluvchi va beton qorish sexiga uzatuvchi qurilmalar (tasmali konverlar, yuklagichlar) joylashtiriladi. Natijada omborning mexanizmlar bilan birgalikdagi uzunligi o'rtacha 25...40, eni 5...10m kengayishi mumkin.

To'ldiruvchilar va sement omborlari beton qorish sexi yoniga joylashtiriladi.

Beton qorish sexi

Beton qorish sexlari tarkibi va sinfi bir hil bo'lmagan sifatli beton qorishmasini tayyorlashga moslab loyihalanadi. Bunday sexlar beton qorigichlardan, saralagichlardan, sarflash bunkerlaridan, boshqarish jihozlaridan kimyoviy qo'shimchalarni tayyorlovchi qurilmalardan, shuningdek xom-ashyolarni qabul qiluvchi va beton qorishmasini uzatuvchi tashqi tasmali konver tuzilmalaridan tashkil topadi.

Beton qorish sexi quyidagicha sinflanadi: ishlash prinsipi bo'yicha, jihozlarning joylashishi bo'yicha beton qorigich idishlarning joylanishi sxemasi bo'yicha, ishlash jarayonlarini boshqarish bo'yicha.

Ishlash prinsipi bo'yicha beton qorish sexlari "siklli" va "tinimsiz ishlovchi" xillariga, jihozlarning joylanishi bo'yicha esa "yordamchi" va "balandlikli" hillarga bo'linadi. Beton qorigich idishlarning sxemasi bo'yicha "chiziqli" bir va ikki qatorlik hamda "uyasimon" shaklda bo'ladi.

Beton qorish sexlari tik sxema bo'yicha loyihalanadi va balandligi 25-30 metr atrofida bo'ladi. Sexning o'lchamlari orasidagi masofasi 6x9, 6x12, 9x12, 12x12, 12x18, 18x24 metr qilib loyihalanadi. Yuzasi 54-432 ming m² va yirik korxonalar uchun esa 30 ming m³dan ko'p beton qorishmasi tayyorlashga moslashtiriladi.

To'ldiruvchilar (qum, shag'al va h.k) omborlaridan beton qorish sexlarining qabul qilish bunkeriga mos holda (sement, qum, shag'al va h.k) saralash bunkerlari va boshqa uskunalar tik sxema bo'yicha qavatma-qavat joylashtiriladi. Texnologik uskunalar va jihozlarning

Sement esa havo bosimi bo'yicha ostida so'ruvchi quvur orqali uzatadi. Sarflash bunkerlaridagi ashyolarning miqdori beton qorigichlarning 1-2 soat ishlashiga yetadigan va bir vaqtning o'zida ikki hil qorishma tayyorlash imkonini beradigan bo'lishi kerak. (xarakatchan va qattiq qorishmalar uchun). Ashyolar saqlash bunkerlarida (talab qilinadigan biton sinfi bo'yicha) kerakli miqdorda 1m² beton qorishmasi me'yori uchun yoki beton qorigich hajmi bo'yicha saralanadi. Ishqorlarga va beton qorigich barabaniga uzatiladi. So'ngra tayyor bo'lgan beton qorishmasi tarqatish bunkeriga, undan esa quyish sexlariga tasmali uzatuvchi konveyrlar yoki transport vositasi yordamida yuboriladi.

Betonqorigich sexlaridagi betonni qoriydigan barabanlar to'xtatib to'xtab (sikli) va tinimsiz ishlaydigan hillarga bo'linadi. Hom-ashyolarni aralashtirish bo'yicha beton qorigichlar gravatasion, ya'ni ashyolar erkin tushib turadigan va majburiy xarakatlanuvchi hillarga bo'linadi. Hom-ashyolarni aralashtirish bo'yicha betonqorigichlar gravatasion, ya'ni ashyolar erkin tushib turadigan va majburiy xarakatlanuvchi hillarga bo'linadi.

Gravatasion betonqorigichlarning sig'imi 100, 250, 500, 1200 va 3000 l, majburiy xarakatlanuvchi betonqorigichlar esa 250, 500, 750 va 1500 l teng bo'ladi. Ishchi qismlarining qurilmasiga ko'ra barabansimon, tarellasimon va lotok shaklida bo'ladi.

Sikli ishlaydigan qorigichlarning bir soat mobaynida qorishmalar soniga va beton qorishmasining chiqish koeffitsiyentiga bog'liq bo'ladi. Sikli ishlaydigan beton qorigichlarning unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$n = V_b \cdot v_n / 1000$$

bu yerda: V_b – beton qorigich barabanining yuklanish sig'imi, n ; v – qorishmaning chiqish koeffitsiyenti, n – bir soatdagi qorishmalar soni.

Qorishmaning tayyorlanadigan hajmi

$$V_{bk} = v \cdot V_b$$

Bir soatdagi qorishmalar soni

$$n = 3600 / t_4$$

bu yerda : t_4 – bitta sikl vaqti, sek:

$$t_4 = t_{yu} + t_0 + t_b$$

bu yerda: t_{yu} – betonqorigichlar yuklash vaqti, sek, t_0 – beton ashyolarini aralashtirish va ketgan vaqt, sek, t_b – betonqorigichni bo'shatish uchun ketgan vaqt, sek.

Betonqorigichlarni yuklash vaqti odatda 10-20 sek oralig'ida bo'ladi. Ularning bo'shatish vaqti esa og'ib to'kadigan barabanlar uchun 10-30 sek, og'maydigan barabanlar uchun 30-50 sek davom etadi.

Hom-ashyolarni qorish vaqti zich to'ldiruvchili qorishmalar uchun 50-120 sek, g'ovak to'ldiruvchili qorishmalar uchun esa 150-240 sek atrofida bo'ladi. Har xil to'ldiruvchili beton qorishmani qorish vaqtlari. Bir soat davomidagi

Sikli ishlovchi beton qorish sexlarining yillik unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_y = S * V_{bk} * m * n * k_b / 1000$$

Bu yerda: S – yillik vaqt fondi, V_{bk} – tayyor beton qorishmasi hajmi, l, m – beton qorishmalari soni, p – bir soatdagi qorishmalar soni, $k_b=0,8$ vaqt bo'yicha beton qorigichdan foydalanish koeffitsiyenti

Beton qorigichlarning soni quyidagicha aniqlanadi. $m=1000*nK V_b*n* k_b$

Bu yerda: n – korxonaning loyihaviy berilgan yillik ish unumdorligi m^3 , qolgan belgilanishlar yuqorida keltirilgan.

Tinimsiz ishlaydigan betonqorigichlarning unumdorligini taxminan quyidagidan foydalanib aniqlaymiz.

$$P=3600*[(PD^2-d^2)/4]*v*rSina*n*kk_m$$

Bu yerda D va d-mos xolda qoruvchi lopatkalar xarakatlanadigan idish boshlang'ich va oxirgi qisimlari, m; b-lopatka yoyi uzunligi, ch-bitta bentidagi lopatkalar soni, dona; P-beton qorigich volikinik aylanishlar soni, ayl/sek; K_t -beton qorigich korpusining to'ldirilish koeffitsiyenti, $K_t=0,55:0,6$; k_m -massaning qaytarilish koeffitsiyenti.

Beton qorigich (gravitasion xarakatlanuvchi) sig'imi 1200l hisobiy yillik ish vaqti 1,4 asosan 3850 soat. Beton qorishmaning gipsi koeffitsiyenti $v=0,67$. Gravitasion xarakatlanuvchi qorigich uchun bir soatdagi qorishmalar soni asosan 15 qabul qilamiz.

Betonqorigich yuklash vaqti $t_{yu}=20$ sek, qorishmani bo'shatish vaqtini $t_b=30$ sek, beton qorish og'ir betonlar uchun $t_o=120$ sek qabul qilamiz. U holda bitta sikl vaqti asosan $t_s=20+30+120=170$ sek. Bir soatdagi qorishmalar soni $P=3600/170=21,2+15$. Demak bir soatdagi qorishmalar soni 22 olamiz.

Betonlarning 1 soatlik unumdorligini hisoblaymiz.

$$P=1200*0,67*22/1000=17,7 m^3$$

Beton qorigichlar soni $m=1000*25000/3850, 804*22=0.48=1$ dona

Bu yerda: $V_{bk}=V_vv=1200*0,67=804$ l.

Beton qorigichda qoriladigan qorishma hajmi. Beton qorigich sexining berilgan unumdorligini hisoblaymiz.

$$p=3950*804*1,22*0,8/1000=55894$$

betonqorigich sexining yillik unumdorligi sexning unumdorligidan ko'p. Demak loyihalangan betonqorigich sexi korxona uchun kerakli beton qorta.

Ekologiya qismi

Loyiha qilinayotgan obyekt qurilishning atrof-muhitga ta'sirini baholashda quyidagilar o'rganib chiqiladi:

1. Loyihalanayotgan obyekt quriladigan joyning fizika-geografik va iqlim sharoitlari – obyekt Denov tumanida qurilishi mo'ljallangan. Qurilish maydoni quyidagi korxonalar bilan chegaralangan.

- shimoldan ekinzor
- sharqdan aholi yashash punkti
- g'arbdan avtomobil yo'li
- janubdan adirlik

Obyektdan ma'lum masofada AYoQSh, qishloq joylashgan. Iqlim sharoiti keskin kontenental quruq, issiq yoz va sovuq qish oylaridan iborat. Havo harorati yozda $+38^{\circ}\text{S}$, qishda (yanvar) – 7°S . Yog'ingarchilik miqdori 3,56 mm, shamolning tezligi 2,0 – 2,5 m/s, yo'nalishi shimoliy sharq, janubiy g'arb.

2. Hududning ekologik holati va mavjud ta'sir etuvchi manbalar obyekt joylashadigan rayon ixtisoslashtirilgan. Yerdagi tuproq eroziyasi, kimyoviy va mineral o'g'itlar ta'siri yo'q. Avtomobil transportlaridan quyidagi yoqilg'i qoldiqlari atmosferaga uglevodorodlar, neft mahsulotlari qoldiqlari tashlanadi.
3. Hududning tuprog'i yer osti va yer usti suv resursi qurilish jarayonining tuprog'i toshloq – 1,0-1,5m, pastki qatlami gil tuproq, o'ninchi qatlami yirik qumdan iborat.
Yer osti suvlari 7-8 m chuqurlikda joylashgan. Beton qurilish konstruksiyalariga nisbatan agressiv emas. Yer osti suvini ichimlik uchun

ishlatish mumkin. qurilish maydoniga yaqin joylarda yer ustki suv havzasi yo'q.

4. Hududning o'simlik va hayvonot dunyosi aholi salomatligi. Yerning yuqori toshloq qismi kam miqdorda sho'rlangan. Shu sababli o'simlik juda kam. Umuman mevali daraxtlar yo'q. Qurilish joyida hayvonot dunyosi ham kam, faqat sudralib yuruvchi va mayda hashorotlar, kemiruvchilar yashaydi.

Qurilish rayoniga yaqin qishloq va aholi yashash punkti aholi salomatligi Sog'liqni saqlash departamenti bergan ma'lumotlarga ko'ra respublikada uchraydigan ko'pchilik kasalliklar bo'yicha foiz hisobida viloyat va respublikadagi ko'rsatkichlar nisbatan ancha past.

5. Hududning mavjud tabiiy ekologik holatini baholash. Obyekt quriladigan joyning fizika-geografik va iqlim sharoitlari, tuprog'i, yer osti va yer usti suv havzalari, o'simlik va hayvonot dunyosi o'rganib chiqiladi. Umumanolganda hududning mavjud ekologik holati qoniqarli, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan manbalar kuzatiladi.
6. Loyihaning yechimini va texnologik yechimining alternativ variantlarini ekologik tahlil qilish

Diplom loyihasi bo'yicha og'ir temirbeton konstruksiyasi ishlab chiqarish korxonasi Denov tumaniga qurilishi rejalashtirilgan. Obyekt poydevori yig'im-temir-beton devori yengil devor paneli, tom yopmasi temir-beton Ferma, qovurg'ali tom yopma plitasi.

Qurilishda ishlatiladigan materiallar, elementlar, texnikalar markasi. Qurilish jarayoni quyidagi asosiy texnologik bosqichlardan tashkil topadi:

- poydevorlar uchun zovur qazish
- zaminni mustahkamlash va tekislash
- bino devorlarini ko'tarish va tomini yopish
- suvoq va pardoiz ishlarini olib borish
- elektr suv ta'minoti va tabiiy gaz tarmoqlarini o'tkazish

- ko'chalarni tekislash, ko'kalamzorlashtiriladigan yerga ishlov berish va obodonlashtirish

Obyekt umumiy yer maydoni $F_{um}=5800 \text{ m}^2$, shundan ko'kalamzorlashtiriladigan yer $F_{zel}=2320 \text{ m}^2$, qurilish egallagan maydon $F_{str}=3480 \text{ m}^2$.

7. Obyekt qurilishida atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni baholash. Obyekt qurilishida atrof-muhitga ta'sir etuvchi asosiy manbalar. foydalaniladigan yerning muhim bir qismini qurilishga olish ($F_{um}=5800$)

- yer maydonining tabiiy holatining buzilishini

- yer qazish va montaj ishlari hamda shu kabi ishlarni bajarishda transport vositalarining ishlashi natijasida atrofga zararli yoqilg'i qoldiq moddalari va changlar tashlandi. Shuningdek mashina, mexanizmlarning kuchli shovqini ta'siri

- qurilish jarayonida suv resurslaridan foydalanib suv olish va oqava chiqazish

- qurilish davomida qattiq chiqindilar hosil bo'ladi

Quriladigan korxonada suv ta'minoti tarmog'idan olinadigan suv asosan ichimlik xo'jalik yong'inni o'chirish va ko'chalarning sanitar holatini talab darajasida saqlash, daraxt va ko'kalamzorlashtirishda sug'orishda foydalaniladi.

Ichimlik suvi qurilish davrida Denov shahri hududida suv ta'minlash tarmog'idan keltiriladi. Qurilish olib boriladigan maydonda vaqtinchalik kanalizasiya tizimlari o'rnatiladi. Qurilish tugagach umumkanalizasiya tizimi quriladi va oqavalar to'liq biologik usulda tozalanadi. U paytgacha bu oqavalar beton uralarda to'planadilar va ularni to'lishi bilan tuman SES tomonidan ajratilgan maydonga yelitib oqqiziladi. Yer ishlarini bajarishda

$$Q=P_1*P_2*P_3*P_4*G*10^6/3600, \text{ g/s}$$

P_1 – tuproqning changlanish farksiyasi

P_2 – aerazol qurilishga o'tadigan chang fraksiyasi $P_2=0,03$

P_3 – shu zolda zonasida shamol tezligini hisoblagan aluni koeffisiyenti $P_3=1,0$

P_4 – tuproq namligini hisobga oluvchi koeffisiyent $P_4=0,7$

G – yer ishi miqdori t/soat=0,292 g/s

Mazkur korxona qurilish va undan foydalanishda atmosferaga deyarli zararli moddalar chiqmaydi. Qurilish jarayonida kam miqdorda noorganik chang payvandlash aerazoli(MPO₂) va kranli avtomobildan is gazi, azot oksidi va hokaxolar havoga ajralib chiqadi. Qurilish xom-ashyo materiallarini ortish, tushirish va saqlash davomida ajralib chiqadigan ifloslanuvchi moddalar

- qum shag'al – noorganik chang

- sement – sement changi

- g'isht – noorganik chang

$$Q=(L*B*g)/100, \text{ t/yil}$$

Bu yerda: L – xom ashyoning chang ko'rinishida yo'qolishi, foiz hisobida L=0,21

B – saqlanayotgan, ortiladigan, tushiriladigan qum, shag'al, sement sarfi t/yil

q - tabiiy yo'qolish me'yor, %

$$Q=(0,21*92,72*0,015)/100=0,292 \text{ t/y}$$

8. Qurilish davomida va ishlab chiqarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan xarakterli holatlarni va ularning atrofga ta'sirini tahlil qilish. Obyektning qurilishi va faoliyati davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatli holatlar ro'y berish ehtimoli juda kam. Voqyea sodir bo'lsa ham ekologik ta'siri vaqtinchalik.
9. Obyekt qurilishining atrofga ta'sir etish harakteri. Korxona ishlash jarayonida mexanizmlar shovqini va havoga chang so'rilib chiqadi va buni bartaraf qilish uchun korxonada suv havzasi, ko'kalamzorlashtirish ishlari bajariladi. Yer qazish ishlarida zamonaviy usullardan foydalaniladi, tuproq tez-tez yeamlantirib turiladi, injenerlik kommunikasiya tarmoqlariga xizmat ko'rsatish uchun tibbiy ko'rikdan o'tgan quduqqa texnik xizmat ko'rsatish va texnik xavfsizlik qoidalarini mukammal biladigan va unga amal qiladigan yoshi 18 dan kam bo'lmagan ishchilar ruxsat etiladi.

Atrof muhit va mehnat muhofazasini ta'minlash

Yig'ma temirbeton korxonalarida atrof muhitni muhofaza qilish va mehnat havfsizligini ta'minlash eng asosiy omillardan hisoblanadi. Korxona sexlarida texnologik jarayonlar bajarilishi davomida chang, zaharli gazlar va issiqlik oqimi ajralib chiqadi. Quyish sexida titratmaydiganlarning ishlashi natijasida yuqori chastotali tovush hosil bo'ladi.

Shu sababli atrof muhitni muhofaza qilish, mehnat havfsizligini ta'minlash va boshqa masalalar bo'yicha maxsus normativ xujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda yuqoridagi muammolarni ta'minlash uchun kerakli tadbir va choralar ko'rsatilgan. Jumladan, xonalarning havosi ifloslanmasligi uchun va zaharli gazlar chiqmasligi uchun issiqlik o'tkazuvchi trubopravodlar, jihozlar va boshqa uskunalar izolyasiyalanishi, chang va zaharli gazlar chiqaruvchi texnologik jarayonlardagi bajariladigan ishlar maxsus himoya kiyim-bosh kiygan holda bajarilishi, shuningdek xona havosi sun'iy va tabiiy usullarda tozalanib va shamollashtirilib turilishi kerak.

Sement va to'ldiruvchilar omborida, beton quyish sexida ishlovchi ishchilar chang o'tkazmovchi markasi FR – 30, FR – 90 filtrlardan foydalanishi kerak. Shuningdek, alohida beshta kiyiladigan F 45 markali resperator, germetik ko'zoynak va mahsus kiyim-boshlar ishlatiladi.

Quyish sexida qoliplarni titratish natijasida hosil bo'ladigan tovush miqdori ruxsat etiladigan miqdordan oshib ketmasligi kerak. Tovush va titrash miqdorini pasaytirish maqsadida titramaydigan tagiga alohida massiv poydevor yasaladi. Bunday poydevorning qolip o'rnatiladigan joylariga mahsus rezina materiallar, elastik prujinalar o'rnatiladi. Natijada tovush va shovqin miqdori kamayadi. Ishchilar rezinali oyoq-kiyim kiyishi, quloqqa tovush o'tkazmaydigan moslama taqishi, mahsus rezina qo'lqop kiyishi kerak.

Ishlab chiqarishning texnologik jarayonida mehnat havfsizligini ta'minlash asosan quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ish joylarikeng va ishlash uchun qulay bo'lishi
- elektr tarmog'i fazasi yerga ulangan bo'lishi
- ishlatiladigan asbob va uskunalar soz bo'lishi

- payvandlash ishlari bajarilganda himoya ko'zoynaklari va qo'lqoplarning ishlatilishi

- shuningdek ish joyiga rezina gilamchalar to'shalgan bo'lishi kerak.

Armaturani mexanik usulda taranglashda taranglovchi qurilma atrofini metal to'r bilan o'rab chiqish, qurilma uchlariga xavsizlik to'siqlari o'rnatilgan bo'lishi kerak. Armaturani taranglash paytida shu ishlarni bajarish uchun ruxsati bor kishilar qatnashishi lozim.

Buyumlarni issiqlik bilan qotirish uchun bug'lash kamerasining qopqog'i germetik mahkamlanishi, shuningdek, kamerani ta'mirlash va tozalash uchun uning devorida tushish va chiqish ilgaklaribo'lishi kerak. Sexdagi tovush va shovqin miqdori 90 dbdan oshmasligi kerak. Qoliplar va buyumlarni ishlab turgan odamlar ustidan ko'tarib o'tish qat'iy man qilinadi. Kerakli jihozlar va mexanizmlarga yorug'lik yoki tovush signali o'rnatilishi kerak. Ish joylari mahsus afisha va texnika xavfsizligi qoidalari plakatlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Texnologik jarayonlarda ishlatiladigan barcha jihozlar, uskunalar, mashina va mexanizmlar doimo nazorat qilinib borilishi lozim. Korxona (sex) ishchi-xodimlari texnika havfsizligi qoidalari bo'yicha kerakli instruktajdan o'tgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bajenov Yu.M "Texnologiya betona", M. Stroyizdet 1987
2. Bajenov Yu.M, Kamar A.G "Texnologiya betonных i jelezabetonных" izdeliy A Sroyizdet 1987 g
3. Konstantinpolo G.S Pragmer "Zadachi po mexanicheskomu oborodovaniyu zavodov jelezabetonных" izdeliy M. Vysshaya shkola 1986 g
4. Yashina T.V "Texnologicheskiye liniya po proizvodstvu sbornых jelezabetonных" izdeliy UCh Pasobva Gomel Beltut, 1999 g
5. Sapojnikov M.Ya, Drozdov N.Ye "Spravochnik po oboroduvaniyu zavod straitelных materialom" Gosstroy izday 1970g
6. "texnologiya jelezabetonных izdeley v prmerax i zadachax" Podred Popova A.N.M.M Vysshaya shkola 1937 g
7. Volkov A, Kazarin S.K "spravochnik molodoga rabochevo predpriyat obornogo jelezabetona" M. Vyshiy shkola 1992 g
8. RSTUZ 724-96. Betony pravila kontrolya prognosti

9. Sitelaury G.I Proyektirovani predpriyatiy sborchogo jelezabetona stroyizdat 1989 g
- 10.Xitrov V.G texnologiya jelezobetonnyx izdeliy M. Vysshiy shkola 1978 g
- 11.E.Qosimov “Qurilish ashyolari” Toshkent “Mehnat”- 2004 y
- 12.B.A.Askarov, Sh.R.Nizomov “Temirbeton konstruksiyalari” T. O’zbekiston 2009 y
- 13.Qo’ldoshev X “Beton va temirbeton buyumlaritexnologiyasidan bosqich va bitiruv malakaviy ishlarni bajarish uchun uslubiy qo’llanma” Samarqand SamDAQI
- 14.H.Qo’ldoshev, R.H.Qo’ldosheva “Temirbeton buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi” O’quv uslubiy qo’llanma Samarqand 2010 y
- 15.Melnika R.A, Strigo G.S.i, Mirmuxammedova R.X Chertej jelezobetonnyx konstruksiy v v kursovom i diploma proyektirovanii metodicheskiya ukazaniya – albom Sam 1989 g
- 16.“Tabiatni muhofaza qilish to’g’risi”da O’zRes qonunlari Tosh. 1992 yil
- 17.O’z Res Davlat ekologik ekspertizasi to’g’risida nizom. O’z.Res. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo’mitasi Tosh.2010 y
- 18.Qurilish me’yorlari va qoidalari. KM va Q 02.04-01-97 Bino va inshootlarning suv ta’minoti va kanalizatsiyasi T. 1997 y
- 19.Atmosfera havosini muhofaza qilish to’g’risida O’z. Res.si qonuni 1996 y
- 20.Internet sahifasi 600 del.ru Dimitrovskiy zavod MZKBBK, osnovaniom v 1952 godu proizvodstvo jelezobetonnyx blok dlya stroyeniy jelezadornjnyx i avtodornjnyx mostov

